



JAHON IQTISODIY HAYOTIDA GLOBALLASHUV JARAYONI

Obidov Firdavs Olimovich

TDPU "Tarix" fakulteti



Annotatsiya:

Globallashuv, global iqtisodiy jarayonlarning tarixiy rivojlanishi, hozirgi davrdagi o‘zgarishlari va kelajakdagi istiqbollari haqida, mamlakatlar va mintaqalarning globallashuv jarayonida qanday ishtirok etishi, bu jarayonning ijobiy va salbiy tomonlari ham keng ko’lamda o’rganish haqida yoritiladi. Ushbu maqola talaba, tadqiqotchi va iqtisodiyot sohasi mutaxassislari uchun qimmatli manba bo’lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, baynalmilal, navigatsiya, tendensiyalar ta’sirida rivojlanish, bozor munosabatlari, transmilliy korporatsiyalar, investitsiya, ekspansiya.

Zamonaviy dunyoda globallashuv jarayoni davlatlar va mintaqalar rivojlanishining ajralmas qismidir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: — "...dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus" [1] olayotganligi, geosiyosiy raqobat, egallab turgan mavqemizni xolisona va tanqidiy tahlil qilishimiz, tobora globallashuv talablariga javob berishimiz dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Globallashuv - hozirgi xalqaro munosabatlarning obyektiv jarayoni, axborot texnologiyalari rivojiga asoslangan baynalmillashtirishning oliv bosqichi. Globallashuvning kelib chiqishi manbalari to‘g‘risida turli- tuman qarashlar mavjud. Tarixchilar bu jarayonga kapitalizm taraqqiyoti bosqichidan biri deb qaraydi. Iqtisodchilar moliya bozorlarining transmilliyashuvi jarayonining ibtidosi deb hisoblaydilar. Siyosatshunoslar demokratik institatlarning yoyilishi, Madaniyatshunoslar globallashtirishni AQShning ekspansiyasini ham o‘z ichiga olgan madaniyatning g‘arblashtirishini bilan bog‘laydilar.

Qadim zamonlarda turli xalqlar o‘rtasidagi savdo-sotiq va madaniy almashinuv allaqachon globallashuv yo‘lidagi dastlabki qadamlar edi. O‘rta asrlarda



Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th June, 2024

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

navigatsiyaning rivojlanishi va yangi savdo yo'llarining ochilishi bilan globallashuv yanada yaqqol namoyon bo'ldi.

Globallashuvning shakllanishida mustamlakachi imperiyalar muhim rol o'ynadi, bu esa dunyoning turli hududlarida o'z ta'sirini kengaytirdi. XIX-asrdagi sanoat inqilobi ham globallashuv jarayonlarining tezlashishiga hissa qo'shib, xalqaro savdo va texnologiyalar almashinuvining kuchayishiga olib keldi. Ikkinci jahon urushi tugaganidan keyin XX-asrda transport, telekommunikatsiya va axborot texnologiyalarining rivojlanishi tufayli globallashuv yanada kuchaydi. Bugungi kunda globallashuv dunyoning turli mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati, madaniyati va ta'lmini bog'lab, hayotning deyarli barcha sohalarini qamrab olgan. Jahonda globallashuvning shakllanish tarixi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, hozirgi zamon chaqiriqlari va tendensiyalari ta'sirida rivojlanish va o'zgarishlarda davom etishini anglash zarur.

Hozirgi vaqtda jahonda shunday vaziyat yuzaga keldiki, transmilliy korporatsiyalar qayerda xomashyo va ishchi kuchi mavjud bo'lsa, o'sha yerda ishlab chiqarishni, qayerda maqbul bozor bo'lsa, o'sha yerda sotishni tashkil etmoqda (mehnat zaxiralarining globallashuvi). Globallashuv jahon xo'jaligi aloqalarini baynalmillashtirish sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish butun insoniyatning moddiy va ijtimoiy darajasini ko'tarishda namoyon bo'ldi.[2]

Hozirgi dunyoda globallashuv milliy - etnik chegaralardan oshib o'tib, sayyora hayotining ko'pdan-ko'p iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, axborot va boshqa sohalariga aralashmoqda va bu bilan o'z "faoliyatining yagona jahon makoni" ni yaratmoqda.

Globallashtirish jahonda transmilliy matbuot, axborot va targ'ibot vositalarining paydo bo'lishini rag'batlantiradi. Globallashtirishda ishtirok etayotgan davlatlar va birlashmalarning boshida AQSh va Yaponiya turibdi. Umuman, ulardan tashqari bu jarayonda Germaniya, Kanada, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, shuningdek "Janubning katta yettiligi" hisoblanadigan Xitoy, Hindiston, Braziliya, Indoneziya, Meksika, Janubiy Koreya va Tayland ham ajralib turibdi.[3]

Agar XX asrning oxirgi o'n yilligida Shimoliy Amerikaning rivojlangan mamlakatlarining yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmidagi hissasi 53 foizdan 46 foizga tushgan bo'lsa, Osiyo- Tinch okeani havzasi mamlakatlari o'z hissasini 19



foizdan 28 foizga etkazdi, rivojlanayotgan mamlakatlarning hissasi 35 foizdan 48 foizga ko‘tarildi. Xitoy jahon mahsulot ishlab chiqarishidagi hissasini 8 foizdan 15 foizga olib chiqdi. Bu globallashuv o‘z ichki taraqqiyot qoidalariga muvofiq, ishlab chiqarish va investitsiyalarni ancha maqbulroq mamlakat va mintaqalarga ko‘chirayotganini yana bir marta isbotlandi. Bugungi kunda jahon globallashuv faoliyatining an'anaviy markazlari Nyu-York, Tokio, Londondan asta-sekin Gonkong, Istanbul, Singapur va Moskvaga ko‘chmoqda.

Shu o‘rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek - " Globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangi yondashuv hamda yangi tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda." - deydi.[4]

Globallashuv, yuqorida aytib o‘tilganidek, garchi, umuman, insoniyat taraqqiyoti bosqichlaridan kelib chiqadigan obyektiv jarayon bo‘lsa - da, shunga qaramay, jahon siyosatining transmilliylashuvi va XXI asr boshlaridan virtuallasha boshlagan jahon geosiyosiy makonining chegarasiz yagona axborot maydoniga aylanishi aslo stixiyali tarzda va o‘z- o‘zidan yuz bergani yo‘q.[5]

Xulosa qilib aytganda, yaxshimi yoki yomonmi, lekin globallashuv industlashtirish , kosmosni zabit qilish, elektron texnologiyalarni kashf etish va hokazolar bilan bir qatorda jahonshumul hodisa sifatida insonlar hayotiga kirib bo‘ldi. Globallashuv natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy o‘zgarishlar xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va bozor munosabatlarini rivojlantirishga yordam beradi, lekin ijtimoiy tengsizlikni ham kuchaytirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev. Jismoniy va ma’naviy barkamol yoshlar - bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir. T. "O‘zbekiston" 2017 yil. 505 bet.
2. Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. "O‘zbekiston ovozi", 2017 yil.
3. Hasanov. A. Geosiyosat. T. "Tamaddun" 2016 yil. 406 bet.
4. Samadov. A. R. Geosiyosat asoslari. Samarqand. 2021yil. 64 bet.
5. Tuxliyev. N. Osiyo taraqqiyot modeli. T. "O‘zbekiston" 2015 yil.